

VII. ISTE'MOL BOZORI

2023- yil yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 18 791,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,7 %ga o'sdi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakllari bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2022- yil yanvar-sentabrga nisbatan % hisobida</i>	<i>Yakunga nisbatan % hisobida</i>
Jami	18 791,2	105,7	100,0
<i>shu jumladan mulkchilik shakllari bo'yicha:</i>			
davlat mulki	-	-	-
nodavlat mulki	18 791,2	105,7	100,0

Yirik savdo korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2023- yil yanvar-sentabr oylarida 2 811,2 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,6 %ga oshgan.

Kichik biznes va yakka tartibdagi tadbirkorlikning jami chakana savdo tovar hajmi joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 15 980,0 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,4 %ni tashkil qilgan.


2023- yil yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2022- yil yanvar-sentabrga nisbatan % hisobida</i>	<i>Yakunga nisbatan % hisobida</i>
Chakana savdo tovar aylanmasi	18 791,2	105,7	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
yirik savdo korxonalari	2 811,2	107,6	15,0
kichik biznes va yakka tartibdagi tadbirkorlik	15 980,0	105,4	85,0
<i>shu jumladan: uyushmagan sektor (tashkil etilmagan savdo faoliyati)</i>	<i>1 687,7</i>	<i>108,5</i>	<i>9,0</i>

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi

	2023- yil yanvar-sentabr, mlrd. so'm	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Toshkent viloyati	18 791,2	105,7
<i>shaharlar:</i>		
Nurafshon	426,9	101,8
Olmaliq	1 521,8	106,4
Angren	1 057,4	103,9
Bekobod	970,6	106,6
Ohangaron	462,0	105,6
Chirchiq	962,3	108,3
Yangiyo'l	1 256,9	100,2
<i>tumanlar:</i>		
Oqqo'rg'on	735,1	104,2
Ohangaron	224,2	104,1
Bekobod	455,2	105,5
Bo'stonliq	1 411,0	107,3
Bo'ka	662,9	108,9
Quyichirchiq	330,6	107,4
Zangiota	2 053,6	110,2
Yuqorichirchiq	532,2	105,8
Qibray	1 139,6	111,6
Parkent	707,0	111,7
Piskent	486,3	102,5
O'rta Chirchiq	257,2	103,4
Chinoz	692,2	106,7
Yangiyo'l	623,7	101,7
Toshkent	1 822,5	100,1


Hududlarning jami chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (%da)



Umumiy ovqatlanish sohasining tovar aylanmasi 912,7 mlrd. so'mga yetdi yoki 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 104,3 %ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga nisbatan hisoblaganda 103,8 %ni yoki 6 232,8 ming so'mni tashkil etdi (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 5 426,4 ming so'mni tashkil etgan).

Hududlarning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi (%da)



Toshkent viloyatida chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng yuqori ulush Zangiota (10,9 %), Toshkent (9,7 %), Bo'stonliq (7,5 %) tumanlari hamda Olmaliq (8,1 %) va Yangiyo'l (6,7%) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	<i>Ming so‘m</i>	<i>O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %da</i>
Toshkent viloyati	6 232,8	103,8
<i>shaharlar:</i>		
Nurafshon	7 776,1	98,6
Olmaliq	10 634,9	101,4
Angren	5 871,4	101,4
Bekobod	9 432,0	104,3
Ohangaron	11 269,4	103,8
Chirchiq	5 667,0	105,8
Yangiyo‘l	15 143,9	97,3
<i>tumanlar:</i>		
Oqqo‘rg‘on	6 622,7	102,3
Ohangaron	2 039,6	102,1
Bekobod	2 772,0	103,7
Bo‘stonliq	8 026,2	106,0
Bo‘ka	4 972,7	107,1
Quyi Chirchiq	2 877,0	105,4
Zangiota	12 180,2	109,1
Yuqori Chirchiq	3 856,7	103,9
Qibray	6 557,0	110,5
Parkent	4 012,8	109,9
Piskent	4 758,1	104,5
O‘rta Chirchiq	1 898,3	101,9
Chinoz	4 816,7	104,3
Yangiyo‘l	3 146,9	99,4
Toshkent	9 356,0	97,5

2023- yil yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 6 232,8 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,8 %ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida o'tgan yilga nisbatan viloyatning aksariyat hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkichlar Yangiyo'l (15 143,9 ming so'm) va Ohangaron (11 269,4 ming so'm) shaharlari hamda Zangiota (12 180,2 ming so'm) va Toshkent (9 356,0 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Chirchiq (5 667,0 ming so'm) shahri hamda Ohangaron (2 039,6 ming so'm) va O'rta Chirchiq (1 898,3 ming so'm) tumanlariga to'g'ri keldi.

**Hududlar kesimida aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi
hajmi va o'sish sur'ati**

